



NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR DIQQAT XUSUYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

¹Maxmudova Madinaxon

Sobirxonovna

²Ummatova Aziza

Abdulali qizi

¹Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti

²Logopediya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Diqqat ta'lim olishning ham zaruriy shartidir. Bolalarning o'quv materialini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari dastavval diqqatning mavjud bo'lishiga bog'liqdir. Qator mualliflarning ko'rsatishicha, nutq nuqsoniga ega bolalarda diqqatning oliy shakllarini buzilishini biologik va ijtimoiy rivojlanishi orasidagi bog'liqlarning buzilishidir.

Kalit so'zlar

Nutq, diqqat, bilish jarayon, ruhiyat, birlamchi nuqson, psixologik aspect, rivojlanish, nutqiy buzilish, ta'sir, maxsus usul.

Hozirgi vaqtda defektologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri rivojlanishida kamchilikka ega bo'lgan bolalarni har tomonlama psixologik-pedagogik o'rganishdir. Ayniqsa, maktabgacha defektologiyada ushbu yo'nalish juda dolzarb, chunki aynan shu yoshda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni erta aniqlash va bartaraf etish korreksion ta'sir jarayonini faollashtirish imkonini beradi.

Hozirgi kungacha ilmiy defektologiyada birlamchi nutq nuqsonlariga ega bolalar psixologiyasi kabi nazariy va amaliy jihatdan zarur bo'lgan maxsus psixologiya sohasi mustaqil fan sifatida tashkil etilmagan. Nutq nuqsoniga ega bolalar psixologiyasi muammosiga taalluqli umumiy nazariy va eksperimental metodik savollari etarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa faqat ayrim zamonaviy tadqiqotlarning metodik darajasiga salbiy ta'sir etib qolmay, shuningdek, shu toifaga kiruvchi bolalarni maxsus ta'lim jarayonida kamchiliklar keltirib chiqaradi.

Ruhiy hodisalar ko'rinishlari orasida diqqat alohida o'rin tutadi: ko'pgina psixologlarning ta'kidlashicha, diqqat mustaqil ruhiy jarayon hisoblanmaydi va shaxs sifatlariga taalluqli emas.

Diqqat bilish jarayoni hisoblanadi va mazkur jarayonni tashkil etish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Diqqat mo'ljal- tadqiqot faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, obraz, fikr va boshqa hodisalar mazmuniga qaratilgan ruhiy harakatni ifodalaydi. Diqqat aqliy faollikni boshqarishda katta rol o'ynaydi. Diqqat hech bir erda

mustaqil jarayon sifatida namoyon bo'lmaydi, u har qanday ruhiy faoliyatni o'z obyektiga yo'nalganligi, qaratilganligi va jamlanganligi sifatida mazkur faoliyatning bir tomoni yoki sifati ko'rinishida namoyon bo'ladi. Diqqat o'zining spetsifik mahsuliga ega emas, uning natijasi har qanday faoliyatning yaxshilanishi hisoblanadi. Agarda inson idrok etayotgan yoki bajarayotganida o'z diqqatini jamlamasa, hech bir ruhiy jarayon maqsadga yo'naltirilgan va mahsuldor kechmaydi. Inson biron-bir predmetga qarashi va uni payqamasligi mumkin. O'z xayollari bilan band inson ovoz uning eshituv apparatiga etib borishiga qaramay atrofdagilarni eshitmaydi. Inson diqqati biron-bir boshqa narsaga qaratilgan holatda ham og'riqni sezmasligi mumkin. Aksincha, predmet yoki faoliyatga bor diqqatni jamlar ekan, inson uning barcha detallarini payqaydi va juda mahsuldor harakat ko'rsatadi, o'z diqqatini hissiyotlarga qaratar ekan, u o'zining sezgirligini oshiradi.

Diqqat inson hayoti va faoliyatida ko'pgina turli funksiyalarni bajaradi. P.C. Немов ta'kidlaganidek: "Diqqat mazkur damdagi psixologik va fiziologik jarayonlarning zarurlarini faollashtiradi va zarur bo'lmaganlarini tormozlaydi, inson organizmiga kelib tushadigan axborotlarni tashkillashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan tarzda saralashga ko'maklashadi".

Diqqat har qanday faoliyatning zaruriy shartidir. Mana shu hol fransuz olimlaridan Kyuvyeni o'z zamonasida iste'dodlilikni chidamli diqqat deb ta'riflashga undagan edi. Masalan, u Nyutonning iste'dodlilikini diqqatning kuchi va barqarorligidadir, deb ko'rsatadi. Nyutonning o'zi, "siz butun dunyo tortishishi qonunini ochishga nima tufayli muyassar bo'ldingiz?"-deb berilgan savoliga "Fikrim – zikrim doimo shu masalaga qaratilganligidan muyassar bo'ldim"-deb javob bergan.

Diqqat ta'lim olishning ham zaruriy shartidir. Bolalarning o'quv materialini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari dastavval diqqatning mavjud bo'lishiga bog'liqdir.

Qator mualliflarning ko'rsatishicha, nutq nuqsoniga ega bolalarda diqqatning oliy shakllarini buzilishini biologik va ijtimoiy rivojlanishi orasidagi bog'liqlarning buzilishidir. Bu bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi.

A.П.Лурия¹ nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatini o'rganib chiqib, bu bolalarda ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriy diqqatga nisbatan rivojlangan bo'ladi deb ta'kidlaydi. Bu bolalar diqqatini shakllantirish shaxs xususiyatlarini rivojlantirib borish bilan bog'liq deb xisoblaydi. Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatining xolatini bir qator metodikalar yordamida o'rganish mumkin.

Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqat xususyatlarini o'rganib chiqib, diqqatni shunday tasniflaydi:

- nutq buzilishlariga ega bolalar diqqatining turg'unligida kuzatiladigan kamchiliklar nutq, nutqiy boshqaruvchilik funksiyalarini buzilishlari yoki zaiflashuvi natijasida kelib chikadi.
- nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatining hajmi, dunyoqarashining torligi, nutqning boshqaruvchilik funksiyasining zaiflashuvi oqibatida xajmi tor va miqdor jihatdan pasltigi bilan tavsiflanadi.

¹ Лурия А.П. Основы нейропсихология. - М.,1997

• nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatining ko'chuvchanligi, taqsimlanishi, avvalgi predmet obrazini idrok etish va xotirada saqlab turish, faollikning pastligi, turg'un emasligi, miqdor va sifat jihatdan pastligi bilan tavsiyalanadi.

Bilish jarayonlarining barcha turlarini takomillashuvi bola nutqini rivojlanshiga tayanadi. So'z bola tomonidan o'zlashtirilayotgan sensor etalonlarini belgilaydi, tafakkur jarayoniga birlashib, tasavvur va tushunchalar yuzaga chiqarib, mantiqiy fikrlash imkoniyatini ta'minlaydi. Nutq tasavvurni yo'naltiradi, diqqat va diqqat oldiga maqsad qo'yadi, ixtiyoriylik elementini kiritadi, eslab qolishga anglanganlik kasb etadi. Nutq yordamida bola insoniyat tomonidan yig'ilgan tajribalarni, xususan psixik faoliyat tajribalarini egallaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni xulosalab, nutq nuqsoniga ega bolalar mnestik faoliyatida o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi degan fikrni ilgari surish mumkin. Ayniqsa, bu tafovutlar meyorini nutqi to'liq rivojlanmaganligi bilan solishtirganda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ushbu nuqsonlikda nutqiy rivojlanishning barcha tomonlari zararlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "Importance of didactic games in speech development of mentally retarded children." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 20-23.

2. Shuxratovich, Maxmudov Xurshid. "Socio-Psychological Of Children With Speech Impairment Adaptation Features." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.11 (2022): 243-248.

3. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 4.04 (2023): 179-186.

4. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 4.04 (2023): 187-192.

5. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 765-771.

6. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Tahirova Mahliyo. "Ways To Increase The Vocabulary Of Mentally Retarded Children Of Preschool Age Based On Plot Role-Playing Games." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.2 (2023).

7. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "IMPORTANT ASPECTS OF COLLABORATIVE ACTIVITIES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." (2023).

8. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Khomidova Shahribonu. "PEDAGOGICAL TASKS OF SPEECH THERAPIST AND PARENT COOPERATION IN ELIMINATING SPEECH DEFECTS." *American Journal of Interdisciplinary Research and Development* 16 (2023): 38-41.

9. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinaxon. "Professional Training Of Future Speakers In The Period Of Independent Study." *Archive of Conferences*. Vol. 10. No. 1. 2020.
10. Maxmudova, Madinaxon, and Babayeva Azizabonu. "Ruhiiy Rivojlanishi Sustlashgan Bolalar Lug'atining Psixik Rivojlanish Bilan Bog'liqligi." *Conference Zone*. 2022.
11. Kodirova, Feruzakhon Usmanovna, S. Z. Matupaeva, and Feruza Rakhimovna Teshaboeva. "Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education." (2020).
12. Mahmudova, Madina Sobirkhonovna. "The Role Of Independent Education In The Formation Of Professional Competencies Of Prospective Speech Therapists." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 2.10 (2020): 358-363.
13. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol* 8.1 (2020).
14. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinahon. "An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists." *International Journal on Integrated Education* 3.11 (2020): 210-211.
15. Maxmudova, Madinaxon, and Axmedova Vaziraxon. "Tayanch–Harakati A'zolari Falajlangan Bolalar Lug'atini Rivojlantirish Yo'llari." *Conference Zone*. 2022.
16. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 4.04 (2023): 187-192.
17. Maxmudova, Madinaxon. "Technologies for the development of professional competencies of students of Higher Education." *INTERNATIONAL JOUR*
18. Maxmudova, M., and O. Zikirova. "Speech therapist and family collaboration in overcoming severe speech deficits." *European Scholar Journal* 2.10 (2021): 72-73.
19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." *Confrencea* 3.03 (2023): 17-20.
20. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinaxan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.
21. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 4.04 (2023): 179-186.
22. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFİCİT." *Confrencea* 3.03 (2023): 21-25.
23. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinaxan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech

therapists in dual education." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 148-154.

24. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." *EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION* 29 (2020).

25. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPEECH THERAPISTS IN THE PROCESS OF STUDYING INDEPENDENTLY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 155-158.